

“O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI VA ADABIYOTSHUNOSLIGI TARAQQIYOTI, XALQARO HAMKORLIK MASALALARI”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya O‘ZBEK TILI DARSLARIDA O‘QUVCHILARNING IMLOVIY SAVODXONLIGINI OSHIRISH

A.Sultanova

Ajiniyoz nomidagi Nukus DPI

O‘zbek tili kafedrasi dotsenti, p.f.f.d (PhD)

Annotatsiya. Mazkur maqolada o‘zbek tili darslarida o‘quvchilarning imlo savodxonligini oshirish va nutqini o‘stirish masalalari haqida so‘z yuritilgan.

Kalit so‘zlar. o‘zbek tili, dars, nutq o‘stirish, grammatik vosita, imlo.

Аннотация. В данной статье рассматривается о вопросах повышения орфографической грамотности и развития речи учащихся на уроках узбекского языка.

Ключевые слова. Узбекский язык, урок, развитие речи, грамматический инструмент, орфография.

Annotation. This article discusses the issues of improving spelling literacy and speech development of students in Uzbek language lessons.

Key words. Uzbek language, lesson, speech development, grammatical tool, spelling.

Ta’lim qoraqalpoq tilidagi maktablarning o‘zbek tili darslarida o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqini o‘stirish, asosan, ularning so‘z boyligini oshirish, grammatik vositalar hamda mavjud so‘z zaxirasidan foydalanib gap tuzish, o‘z fikrini dialogik va monologik shakllarda bayon etish ko‘nikma va malakalarini shakllantirish tushuniladi. Nutq o‘stirish jarayoni gap tuzib aytish yoki yozish tarzida, gaplarni bog‘lanishli qilib bir-biriga biriktirish tariqasida kechadi. Bunda so‘zlarni o‘zaro bog‘lovchi, gaplarning formal shakllarini yuzaga keltiruvchi, modal munosabat ifodalovchi til hodisalarini izchil o‘rgatib borish muhim o‘rin tutadi. Muammo shundaki, o‘quvchilarni o‘zbek tilining grammatik vositalari bilan tanishtirishda ularning amaliy nutq saviyasi, bilim darajasi, til o‘rganish imkoniyatlari va ehtiyojlarini hisobga olish qay yo‘sinda ro‘yobga chiqarilishi, o‘rgatish metod va usullari qanday bo‘lishi, mashq turlari nimalardan tanlanishi kerakligi o‘qituvchini qiyin vaziyatlarga soladi. Ma’lumki, nutq o‘stirish uchun tegishli so‘z boyligini, grammatik vositalar zaxirasini hosil qilishning o‘zi sira ham kifoya qilmaydi. O‘quvchilar olgan bilimlaridan amalda foydalanib tursalargina, ya’ni o‘zbek tilida ko‘proq gapirib, o‘z fikrlarini ko‘proq yozma tarzda ifodalashni mashq qilsalargina imloviy savodxonligi o‘sadi, nutq madaniyati rivojlanadi.

O‘zbek tilidagi ayrim jarangli undosh bilan tugagan qo‘shimchalar, xususan, holat fe’llarini (*yuribdi, turibdi, yotibdi, o‘tiribdi*), ravishdoshni hosil qiluvchi **-b, -ib** qo‘shimchalari qoraqalpoq tilida jarangsiz undosh bilan (**-ip, -p**) beriladi. Bunday holatlarda qoraqalpoq tilida so‘zlovchi o‘quvchilar **-b, -ib** shakllarini ham jarangsiz undosh bilan yozishga intiladilar, natijada imloviy xatolarga yo‘l qo‘yadilar: *tur**ipti***

“O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI VA ADABIYOTSHUNOSLIGI TARAQQIYOTI, XALQARO HAMKORLIK MASALALARI”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

(*turibdi o‘rniga*), *yoziq* (*yoziq o‘rniga*), *o‘qip* (*o‘qib o‘rniga*) kabi. O‘zbek tilidagi **moqda**, **-(a)yotir** qo‘shimchalari qoraqalpoq tilida o‘z muqobiliga ega emas. Masalan, o‘qimoqda so‘zi qoraqalpoq tilida o‘qip atir shaklida yoziladi va aytiladi. Ikkala tildagi grammatik vositalar yuzasidan keltirilgan qisqa qiyoslashdan bilish mumkinki, to‘liq mos keladigan qo‘shimchalar sanoqli.

Qoraqalpoq tilida so‘zdagi bo‘g‘inlar yo‘g‘on va ingichka bo‘lgani uchun so‘zga yo‘g‘on va ingichka qo‘shimchalar qo‘shiladi. O‘zbek tilida bo‘g‘inlarning yo‘g‘on-ingichkaligi ajratilmaydi, shuning uchun ikki xil talaffuz etiladigan so‘zlarga bir xil qo‘shimchalar qo‘shiladi. Masalan, *maktabda*, *kuzni*, *g‘arbdan*, *sendan* kabi. Qoraqalpoq tilida so‘zlovchi o‘quvchi ona tili ta‘sirida o‘zbekcha so‘zlarni bo‘g‘inlarining yo‘g‘on va ingichkaligi bor degan xayolda yo‘g‘on va ingichka qo‘shimchalar qo‘shib aytish va yozishga harakat qiladi, natijada bir tilning ikkinchi tilga interferensiyasi yuz beradi. Shuning uchun o‘qituvchi o‘zbek tilidagi qo‘shimchalarning qoraqalpoq tilida qanday ifodalanishiga befarq qaramasligi, darsda jadval asosida tushuntirish-namoyish etish metodidan, shu metod tarkibida qiyoslash usulidan unumli foydalanmog‘i lozim. Ikkala tildagi grammatik vositalar to‘liq mos keladigan qo‘shimchalar sanoqli. Birinchidan, o‘zbek tilidagi grammatik vositalar qoraqalpoq tilidagi vositalarning yo‘g‘on qismiga, yoki ingichkalariga teng keladi. Shuning o‘zida moslik ma‘lum darajada chegaralanadi. Ikkinchidan, qoraqalpoq tilida qo‘shimchalarning variantlari yo‘g‘on-ingichkalik tufayligina bo‘lmay, boshqa qonuniyatlar ham amal qiladi. Chunonchi, so‘z qanday undosh bilan tugaganligiga, egalik qo‘shimchasi bor-yo‘qligiga bog‘liq.

Til sathlari bo‘yicha tuzilgan qiyosiy jadvallar shu sathlar yuzasidan o‘rganilgan grammatik vositalarni umumlashtiradi. Shuning uchun bu o‘rinda deduktiv usul vaqtni tejash imkonini bergani uchun ko‘proq qo‘l keladi. Qiyoslashdan so‘ng o‘zbek tilidagi qo‘shimchalarning talaffuzi, imlosi va qo‘llanishiga doir qoidalar o‘rganilishi maqsadga muvofiq. So‘z shakllarini o‘zbek tilidan qoraqalpoq tiliga tarjima qilish ularning ma‘nosini anglashning to‘g‘riligini nazorat qilish imkonini bersa, aks tarjima talaffuzi, imlosi va qo‘llanishi yuzasidan hosil bo‘layotgan bilim, ko‘nikma va malakalar darajasini kuzatishga yordam beradi.

Xullas, o‘zbek va qoraqalpoq tillaridagi grammatik vositalarga doir qiyosiy jadvallar tuzib chiqish, darslarda ulardan foydalanish orqali o‘quvchilarda barqaror bilim, ko‘nikma va malakalar shakllantirish, o‘z nutqidagi talaffuz, imlo va qo‘llashga doir xatolarni bartaraf etishlari uchun imkon yaratish, pirovardida o‘zbek tili mashg‘ulotlarining samaradorligini ta‘minlashga erishiladi. Grammatik vositalarning talaffuzi va imlosi, qo‘llanishi haqida nazariy bilimlarni qiyosiy jadvallardan foydalangan holda mustahkamlash, amalda tatbiq etishni o‘rgatishga

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

doir mashq turlari tavsiya etilgan, ilg‘or pedagogik texnologiya asosidagi ba‘zi ish turlarini o‘tkazish zarur. Bu kabi usullar qoraqalpoq tiliga tarjima qilish ma‘nosini anglashning to‘g‘riligini nazorat qilish imkonini bersa, aks tarjima talaffuzi, imlosi va qo‘llanishi yuzasidan hosil bo‘layotgan bilim, ko‘nikma va malakalar darajasini kuzatishda muhim rol o‘ynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Rafiyev A., Muhammadjonova G., Alovuddinova N. O‘zbek tili: Ta’lim rus va qardosh tillarda olib boriladigan umumta’lim maktablarining 5-sinfi uchun darslik. – Toshkent: “O‘qituvchi” NMIU, 2011. – 192 b.
2. Эргашева А.Р. Она тили дарсларида назарий маълумотларни мустаҳкамлаш жараёнида нутқ ўстириш методикаси (5–7-синфлар мисолида). – Тошкент: «Fan va texnologiyalar Markazining bosmaxonasi», 2010. – 69 б.
3. Эрназарова М.С. Таълим қорақалпоқ тилида олиб бориладиган мактабларнинг 2-синфларида ўзбек тилини ўқитиш методикаси. Пед.фан.номз. ... дисс. автореферати. – Тошкент: 2000. – 22 бет.
4. Sultanova, A. (2020). PROBLEMS OF LEARNING GRAMMATICAL TERMS IN SECONDARY SCHOOLS AND WAYS TO SOLVE THEM POSITIVELY. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*.
5. Sultanova, A. (2019). ABOUT THE BASIC PRINCIPLES OF CONTENT MINIMIZATION STUDYING THE UZBEK LANGUAGE IN SCHOOLS WITH KARAKALPAK LANGUAGE OF TRAINING. CURRENT CHALLENGES OF MODERN SCIENCE.
6. Ishmuradova, I. I., Karameshev, A. N., Sultanova, A. M., & Ishmuradova, A. M. (2018). Design and development of the information system for the support of human resources. *International Journal of Engineering and Technology (UAE)*, 7(3.27 Special Issue 27), 546-549.